

Bolaligim – poshsholigim!

# ERKATOY



№6(10). 2014 y.  
iyun

OBUNA INDEKSI:

882

O'YINLAR

ERTAKLAR

KID'S ENGLISH



Orif TO'XTASH

## SHAMOLLARNI DOG'DA QOLDIRIB...

Orif To'xtash (To'xtashev) 1976 yil 19 sentabrda Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi Beshbola qishlog'ida tug'ilgan. 1993-1998 yillar Samarqand Davlat universitetida jurnalistika ixtisosligi bo'yicha tahlil olgan. 1998 yilda O'zbekiston Axborot agentligining nashri - "Respublika" gazetasida ish boshlab, keyingi yillarda "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasida referent va turli gazetalarda muxbir bo'lib faoliyat ko'rsatdi. 2001 yildan to hozirgi kunga qadar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimlarida xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda "O'zbektefilm" davlat unitar korxonasi direktori o'rinnbosari lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. 1997 yilda Respublika Ulug'bek jamg'armasi mukofoti sovrindori bo'ldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

—Bolaligimi yodga olsam, avvalo tug'ilib o'sgan qishlog'im, qadrdon uyimiz, hovlimizdagi dovdaraxtlardan tortib, loysuvoq tomlargacha "chiqib olgan" qalin maysalarga yotvolgancha o'qigan kitoblarim, koptoksevar tengqurlarim bilan "shamollarni dog'da qoldirganimiz", mehribon onamning "oqizoq" kulchalari ko'z oldimdan bir-bir o'tadi...

Mening bolalik tasavvurlarimni boyitgan, bir so'z bilan aytganda, meni tarbiyalagan ertak kitoblarga hamisha ta'zimdamani!



### KENGLIRU

Dam olishga ketyapman,  
Dam olish-chun Yaltaga.  
Nima qilayin, bolam -  
Sig'mayapti xaltaga?!



### OLMANING DEGANI

- Tanishaylik, men - olma, Reklamaga hojat yo'q,  
Nomimga qulq solma. Ta'mim rosa yoqimli.  
Olaver, ikkilanmay, Ortganini quritsang,  
Ishtahang bo'lsin karnay. Qishda yeysan qoqimni!

# Ay-yay-yay!

Allegretto



Music score for 'Ay-yay-yay!' in G major, 6/8 time. The score consists of four staves of music with lyrics underneath. Measure numbers 9, 18, 26, and 32 are indicated.

Dur-do-na xo'p go'zal qiz So'z-la-ri ham a-sal qiz Am-mo bir o - da-ti bor  
 9 So'r-g'ich-ni qo'y - mas zin-hor Ay yay - yay ay- yay - yay Ay yay - yay  
 18 Ov-qat-lan-sa bo-la - lar Dur-do-na so'r - g'ich so'r-ar O-lib qo'y-sak  
 26 ma-bo - do Yi - g'i - ga la - bin bu - rar Ay - yay - yay  
 32 **Qaytarish uchun** **|| Tamomlash uchun ||**  
 ay - yay - yay Yi - g'i - ga la - bin bu - rar Biz un-ga de - may - Miz hech ay - yay - yay

Durdona xo'p go'zal qiz,  
 So'zlari ham asal qiz.  
 Ammo bir odati bor,  
 So'r-g'ichni qo'ymas zinhor.  
 Ay-yay-yay, ay-yay-yay!

Ovqatlansa bolalar,  
 Durdona so'r-g'ich so'r-ar.  
 Olib qo'y-sak mabodo,  
 Yig'iga labin burar.  
 Ay-yay-yay, ay-yay-yay!

Qo'shiq aytolmas yayrab,  
 Biz kabi yayrab, o'ynab.  
 So'r-g'ichidan bo'shamas,  
 Bu odat yaxshi emas.  
 Ay-yay-yay, ay-yay-yay!

So'r-g'ichini tashlasa,  
 Bizday o'ynab yashnasa.  
 So'rmasa u erta-kech,  
 Biz unga demaymiz hech.  
 Ay-yay-yay, ay-yay-yay!

# YAXSHILIKNI BILMAGAN QOPLON

Bir kishi bo'sh qopni yelkasiga tashlab kelayotgan ekan. To'satdan u daraxtlar orasida yarador bo'lib yotgan qoplanni ko'rib qolibdi. Qoplon boyagi kishidan:

—Xudo xayringni bersin, meni o'sha qopingga solib ol, — deb iltimos qilibdi.

—Meni yemaslikka so'z berasanmi? — so'rabdi u.

Qoplon, ma'qul degandek bosh qimirlatibdi. Shundan keyin yo'lovchi qoplanni qopga solibdi-da, xuddi o'tin orgalangandek orqalab yo'lga tushibdi.

Ko'p o'tmay qoplanni axtarib yurgan ovchilarga duch kelibdi. Ulardan biri yo'lovchidan:

—Birodar, shu yerdan o'tgan qoplanni ko'rmadingmi? — deb so'rabdi.

—Yo'q, ko'rGANIM yo'q, — javob beribdi yo'lovchi.

Ovchilar hech nimani payqamay o'tib ketishibdi, shunda yo'lovchi qoplanni qopdan chiqarib yuboribdi.

—Hoy odam bolasi, sen endi mendan qutulib hech qayerga ketolmaysan, men seni yeypman! — debdi qoplon.

—Nega endi meni yemoqchi bo'lib qolding, qoplonyoy? — so'rabdi qoplanni qutqargan. — Axir, men seni o'limdan qutqarib qoldim-ku! Nahotki, hozir o'tib ketgan ovchilarning gaplarini eshitmagan bo'lsang! Men bergen va'damning ustidan chiqdim, sen bo'lsang shartimizni buzyapsan. Agar meni yemoqchi ekansan, yur, sudlashamiz. Mayli, sening qon-qarindoshlaring bizning masalamizni hal qilib berisha qolsin.

Sudga uy hayvonlari bilan yirtqich hayvonlar yig'ilishibdi.

Birinchi bo'lib sirtlon gapiribdi:

—Menimcha bu odamni yeypish kerak, — debdi u.

Undan keyingi navbatda gapirgan hayvonlarning hammasi bir

og'izdan:

—Bu odam yeypishi kerak, — deb qoplonning fikrini ma'qullabdilar.

Nihoyat, navbat maymunga kelibdi.

—Qani, menga ko'rsat-chi, qanday qilib sen qoplanni halokatdan saqlab qolding? — debdi u.

Yo'lovchi qopini ochib, ichiga qoplanni qamab olibdi.

—Yaxshi, debdi maymun, — ana endi qopning og'zini bog'la.

Yo'lovchi maymun buyurganday qilibdi.

—Ana endi, bir marta unga nayza tiqib oldi-da, menga ko'rsat-o'shanda men o'z fikrimni aytaman, — debdi maymun.

Yo'lovchi qopga nayza sanchibdi, yaxshilikni bilmagan qoplanni o'ldiribdi.

Shuning uchun ham: — Qoplanni dumidan ushlama. ushladingmi, qo'yib yuborma, — deyiladi.



## KATTA BO'LSAM, RASSOM BO'LAMAN!

Jurnalimizning bugungi qahramoni 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtaсидаги "Yer kurrasida tinchlik" mavzusida o'tkazilgan rasmlar tanlovida Respublikada I-o'rin sohibasi bo'lgan Donoxon Haitova.



Donoxon 2007 yil qish chillasida Xorazm viloyatining Xiva tumanida tug'ilgan. U hozirda Xiva tumanidagi ikkinchi sonli maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi.

Bog'chada uni hamma erkalatib "dono qizim hammadan ham a'lo qizim", deb chaqirishadi. Donoxon sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanadi.

Qo'shiq aytishga juda qiziqadi, sevimli mashg'uloti rasm chizish. Kelajakdagи orzusi katta rassom bo'lish.

Durdona AZIZOVA tayyorladi.

## Muxlislardan maktublar

**ERKATOR 5**

Aziz o'quvchi, "Bolajonim – chaman bog'im" tanloviga otanalarimizdan juda ko'plab maktublar oldik. Ularga minnatdorchilik bildirgan holda ba'zi maktublaridan parcha keltirishni lozim topdik.

...Farzandlarimni o'qishlariga omad, kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lishini tilayman. Vatanimizga yordamini ayamaydigan, mehribon bo'lishlarini tilayman va istayman...

**UZOQBOYEVA Farida, Samarqand sh.**

...Sen mening dunyodagi eng ulug' boyligimsan. Sening labingda tabassum ko'rsam, o'zimni dunyodagi eng baxtli ona hisoblayman...

**ASHRAPOVA Zamira, Kogon sh.**

...Qadring non qadridek qadrlı, hayoting asal kabi shirin, asrlar singari uzun, asarlar singari sermazmun bo'lsin. Dunyodagi barcha ezgu niyatlar senga hamroh bo'lsin...

**RAHIMOVA Husniya, Ishtixon t.**

...Men ham qizlarimni Zulfiyaxonim qizlari kabi, o'g'illarim esa O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarib dunyo kezadigan mard jasur o'g'lonlar bo'lishlaringni istab qolaman...

**ESONOVLAR oilasi, G'ujduvon t.**

...Suyangan tog'im, ishongan bog'im, ko'rар ko'zim, aytar so'zim bo'lib, vatanparvar va oilaparvar farzandlar bo'lsin. Ota-onha uchun eng yaxshi mukofot bu – el ichida hurmat topib, "otangga rahmat" degan so'zni eshitib yuradigan farzand yetishtirishdir...

**JO'RAYEV Xayrullanining oyijonisi. Samarqand sh.**

... Bu dunyoda hayotning mazmunin, ko'rdim sizning ko'zingizdan, Duru-marvaridlar shodasi, jilvalansin har bir aytgan so'zingizdan...

**HAMROYEVA Dildora, Toshkent sh.**

**Tahririyatdan:** Tanlova muxlislardan kelayotgan xatlar ogimi ko'pligi sababli tanlov g'oliblari jurnalning keyingi sonida e'lon qilinadi.

LOOK AND  TICK

Do the laundry



- ✓  
 X

I'm hungry



- ✓  
 X

It is nine o'clock



- ✓  X

Dragonfly



- ✓  X

Season: summer...



- ✓  X

Pick up fruit



- ✓  X

Tom is opening the window



- ✓  X

My name is Erkatoy

I'm little. I'm grey.  
My nose is sport.  
My tail is lang. I'm...

- ✓  X

Undress



- ✓  X

## Domestic animals

ERKATOY 7



Goat-echki  
Kid-ulqoqcha



Donkey-eshak  
foal-xo'tikcha



Cat-mushuk  
Kitten-mushukcha



Dog-kuchuk  
Puppy-kuchukcha



Cow-sigir  
Bull-buqa  
Calf-buzoqcha



Horse-ot  
Foal-toychoq


Ram-qo'chqor  
Sheep-qo'y  
Lamb-qo'zichoq



Bilimdon va Zumradga raqamlarni to'g'ri davom ettirishda yordam bering.




Bu jadvalda raqamlarni teng 4 qismga bo'ling. Har bir bo'limdagi raqamlarning yig'indisi 34 ga teng bo'lsin.



1	9	16	7	12	5	4	11
8	15	10	2	13	6	3	14

RASMDA NINALAR TASVIRLANGAN? ULARNI TOPIB BO'YANG.





## MIXNING BOLG'AGA YOZGANI

- Men seni do'st deb yursam,  
Nomard ekansan bolg'a!  
Boshimdan uraverib,  
Keltirding qanday holga?

Umidlarim ko'p edi,  
Barini to'kib ketding.  
Mador bo'lish o'rniغا,  
Belimni bukib ketding.

O'ylab ko'rsam, vazifang -  
Birgina "to'q-to'q" ekan.  
Do'stman, deganing bilan,  
Oqibating yo'q ekan.

Endi mening hayotim,  
Barbod bo'lgani tayin.  
Shu holdan kelib chiqib,  
Senga bir so'z aytayin.

Nasihatmas, bu - niyat,  
Doim ishi olg'a bo'l!  
Har zarbda ham do'st boshin,  
O'pib qaytgan bolg'a bo'l.



## YOZ TONGGI

Chekinadi qora g'am-zulmat,  
Yorishadi yuzi osmonning.  
Dalalarni oladi chulg'ab  
Oppoq shodlik kabi yoz tongi.

Sevinchdan ko'z yoshlар maysa-o't,  
Yig'loq chigirtkalar ovunar.  
Ichlariga sig'may quvonchi  
«Tars» yorilib ketar qovunlar.



## ZEBRA

Kim chizgan ustidagi  
Qator-qator chiziqni?  
Yo birov xo'p savagan—  
Qamchilarning izimi?

## KAPALAK

Dillarni yayratar-da,  
O'zi ham shod yashaydi.  
Tegmas g'ashga, asabga  
Kir, xira pashshaday u.



Quvnar to'yib simirib  
Gul chechakning xush atrin,  
Qisqagina hayoti  
Bir umrlik ibratdir.



## KURKA

Birov rosa jahlini  
Chiqarganmi kurkaning,  
Nega yurar u doim  
G'azablanib-hurpayib?

O'yinning boshida avval ikki kishi tanlab olinadi: biri – do'konga rang bo'yoqlar sotadigan, ikkinchisi – xaridor. Qolgan o'yinchilar – rang bo'yoqlari bo'lib ishtirok etadilar. Har bir o'yinchi qaysi rangni – qizil, yashil, sariq... tanlashini o'zi hal qiladi. Sotuvchining orqasida bo'yoqlar turadi.

Xaridor kelib: –Taq-taq!

Sotuvchi: –Nimaga kelding?

–Rangli bo'yoqqa.

–Qaysi rang kerak?

–Ko'k!

–Bunaqa rang yo'q! (agar haqiqatdan ham bunday rang yo'q bo'lsa, sotuvchi: ko'k rangli biron(maysami, bargmi) nima topib kelishini buyuradi)

Agar shu rang bo'lsa, ko'k rangli o'yinchi tezlik bilan bolalar ichidan chiqadi-da, yugurib qochib ketadi. Xaridor uni quvib yetib olishi kerak. Agar ushlab olsa, keyingi gal xaridor o'sha qo'lga tushgan rangdagi o'yinchi bo'ladi. O'yin shu tariqa davom etadi.



*Yelimqog'ozdan  
yo'lbarschaning  
rasmini olib,  
yopishtiring va unga  
qarab rasmni bo'yang.*





*Sehrgarning ro'moli  
ostidan ushbu hayvon-  
larni topping.*




## YEGAN SARI YEGING KELAR...

Yozning jazirama kunlari kishiga orom beradi. Ayniqsa, siz erkatoylar uchun rohatijon ne'mat, bu nima – muzqaymoqdir. Muzqaymoq juda qadimda, iqlimi issiq Sharq mamlakatlari kashf qilingan bo'lib, uni O'rta Osiyo xalqlari "yaxqaymoq" deb atashgan. Eron va Hindistonni zabit qilgan Iskandar Zulqarnayn askarlari ushbu mamalakatlarning aholisi issiq kunlarda allaqanday "yaxlatilgan sutni" shimb yurganliklarini ko'rib hayratda qoladilar. Buni qarang, shu davrdan boshlab muzqaymoq shirinliklar qatoriga kirib kelgan. Ma'lum bo'lishicha, sut yoki qaymoqqa asal, tuxum, vanil qo'shib muzlatilar va maxsus ko'zalarda saqlanar ekan.



Yomon joylarda ko'rib,  
Deysan irkit to'ng'izmi?  
Nomini topasan tez,  
«Go'ng»ga qo'shsang «qo'ng'iz»ni.



Qadimda xo'p ishlagan,  
Omoch tortib, yer surib,  
Endi traktor ishlar.  
U yotar yeb, semirib.


Doim uyg'a bir nima,  
Tashigani, tashigan.  
Yaxshiyam mittigina,  
Filday emas yaxshiyam.





Chiqmasa ham narvonga,  
Yetadi bo'y'i tomga.  
Bo'yni uzunki, biram,  
Xuddi ko'tarma kran.

Erkatoylar, bu boshqotirmadan  
o'g'il bolalarning ismini toping-chi?

Topishmog



Kalitning shakliga mos  
keladigan rangni toping.





фрукты, овощи, груша, слива, морковь, вишня, огурец, редис, помидор, киви, яблоко, клубника, арбуз, горох, чеснок, абрикос, капуста, баклажан, свёкла, персик, виноград.

Раздели на две части

фрукты	овощи

## Наше тело





Shahnoza SALOHIDDINOVA,  
104-maktab 4-<sup>"V"</sup> sinf o'quvchisi.  
Toshkent sh.



Shaxinabonu G'ULOMOVA,  
1-maktab 2-<sup>"D"</sup> sinf o'quvchisi.  
Qorovulbozor t.



Botir ABULQOSIMOV,  
9-maktab 4-<sup>"A"</sup> sinf o'quvchisi.



Dilnura BAHRIDDINOVA,  
1-maktab 3-<sup>"V"</sup> sinf o'quvchisi.  
Samarqand sh.




Gulchehra TURSUNOVA,  
26-maktab 4-<sup>"A"</sup> sinf o'quvchisi.  
Ishtixon t.



Bekjon SAYDULLAYEV,  
9-maktab 4-<sup>"A"</sup> sinf o'quvchisi.  
Oqdaryo t.



Azamat ASATULLAYEV,  
20-maktab 4-sinf o'quvchisi.  
Shofirkon t.



Ushbu rasmda qaysi tarixiy obida tasvirlangan? Rasmni rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.



Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ma'nnaviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

**MUASSIS:**

"Matbuot info media servis" MChJ

**Muharrir:** Durdona AZIZOVA

**Loyiha muallifi:**

Nodir YUSUPOV

**TAHRIR HAY'ATI:**

Iqbol MIRZO (hay'at raisi)

Shermat YORMATOV

Bahodir SHAROFOV

Vohid LUQMON

Orif TO'XTASH

Nodir JONUZOQ

**Mas'ul kabit:**

Gavhar ABDURAHMONOVA

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

**Tahririyat manzili:**

100011. Toshkent shahri,  
A.Navoiy ko'chasi, 16<sup>-</sup> uy,  
415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani  
Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -  
Bichimi - 70/100 1/16  
Nusxasi - 15 000

Jurnal "Erkatoj" tahririyyati kompyulerlarda  
sahifalandi. Sahifalovchi:  
Anvarjon MIRZAALIYEV

Jurnal qahramonlari surʼatlaridan foydalanan  
tahririyat nuxsati bilan amalga oshlindi.

2014 yil – Sog’lom bola yili

## SOG’LOM BOLAJON

“Sog’ tanda – sog’lom aql”,  
Demish bunda donolar.  
Baxsh etadi bu naql –  
Umrimizga ma’nolar.  
Qulq sol, ey bolajon,  
Ko’zim oqu-qorasi.  
Vataningdir jonajon –  
Ikki daryo orasi.  
Ijobatdir bunda sen  
Orzu qilsang neniki.  
Maqsadlaring bo’lsa keng  
Jumla-jahon seniki!  
O’zligiga o’zi bek –  
Avlodsan, jonim bolam!  
Yurtboshimiz aytgandek:  
“...Hech kimdan emassan kam!”  
Yaramoqlik qanday baxt –  
Elu-yurtning koriga!  
Shukrona qil hamma vaqt  
Shu Vatanning boriga!  
Bu o’lkada har farzand  
Bo’lg’ay sog’lom bolajon.  
Boshingni tutib baland –  
Ulg’ay, sog’lom bolajon!

Orif TO’XTASH.

ISSN 2181-7456



9 772181745001

DIQQAT, YANGI  
TANLOV!

## O’QITUVCHILAR UCHUN “ALPOMISH va BARCHINOY”


Sog’lom  
sizniki



Uyadi telefon  
apparatni



Magnit  
taclasi



**Tanlov sharti:** Muhtaram(a) ustozerlar, siz tarbiyalagan  
va tarbiyalayotgan farzandlarimiz mustaqil ona  
yurtimizning haqiqiy yosh avlodi, bugungi kunning  
Alpomishlari hamda Barchinoylaridir.

O’zingiz ta’lim berayotgan o’quvchilar haqida bizga  
yozib yuboring. Bugungi kun bolalariga eng yaxshi ta’rif  
bergan ishtirokechi tanlov g’olibi hisoblanadi.

